

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ERKIN A‘ZAMNING “NAVOIYNI O‘QIGAN BOLALAR“ HIKOYASIDAGI FRAZELOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

G‘affarberganova Gulnoza Maqsudbek qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘zbek tili va

adabiyoti ta’limi mutaxassisi I- bosqich magistranti

E-mail: lululultvtvul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin A‘zam ijodida leksik birlik hisoblangan iboralarning hikoyadagi nazariy va amaliy ahamiyati, o‘rni haqida fikr yuritimiz. Iboralarning hikoyadagi qo‘shimcha ma‘nosi va asar ta’sirchanligiga qo‘shgan hissasi haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: iboralar, leksik birlik, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, badiiylik.

Bugungi kunda tilimizning leksik imkoniyatlari, so‘z qo‘llash uslubi, ilmiy jihatlari amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham o‘rganilib kelinmoqda. Erkin A‘zamning ushbu hikoyasida iboralarning amaliy va nazariy ahamiyati, o‘rni, tilimizdagi o‘rganilish darajasi haqida ma’lumot beriladi. Asarda iboralardan namunalar keltirib, tilimizdagi amaliy ahamiyati, xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Quyidagi parchalar orqali yozuvchi iboralardan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Yana birpasgina kutsa-ku, olam guliston edi — hademay tong otadi. Ana o‘shanda dori ichadimi, sirkami — *ko‘ngli tortgani*. Injiq, besabr xotin ekan. *Onasini ko‘rgin-u qizini ol*. Yo‘q, Malika... yaxshi baribir!

Hikoyada Erkin A‘zam o‘zining so‘z va leksik imkoniyalardan unumli foydalangan holda yozuvchilik mahoratini namoyon qilgan. Og‘zaki so‘zlashuv uslubida ham yozma adabiyotda ham *Onasini ko‘rgin-u qizini ol*, *ko‘ngli tortmoq* iborasiga juda ko‘p duch kelamiz. Milliylik ufurib turgan ushbu frazemalarda haqiqatan ham, ota-bobolarimiz davridan buyon an‘ana bo‘lib kelayotgan leksik birlik qo‘llanilgan. Onasini ko‘rib qizini olish yangi turmush ostonasida turgan yosh oilalar uchun qo‘llaniladi. Bu o‘rinda esa Malikaning onasi besabr, injiq ammo qizi unday emas deb uqtirilmoqda. *Ko‘ngli tortgan* iborasi esa xohlagan degan ma‘noda ishlatilgan.

Shunaqa bir alomat toifa bor. Doimo ergashib, suykalishib yuradi. Soya, sharpa. O‘zi mustaqil holda biron ishning uddasidan chiqolmaydi. Sevib sevolmaydi, ketib-ketolmaydi. Mudom birovlarning ma’shuqasiga *ko‘z tikkani* tikkan. Mazkur iboraga “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da Shavkat Rahmatullayev shunday izoh beradi: 1.kimga yoki nimaga yoki qayerga. *Tikilib qaramoq*. Varianti: *ko‘z(i)ni tikmoq* kim [o‘zining] kimga yoki nimaga. O‘xshashi: *ko‘zdan kechirmoq; nazar solmoq; ko‘z(i)ni uzmaslik* [1:293]

Apil-tapil kirib mashinaga o‘rnashamiz. Ikki po‘stin o‘zaro g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir qiladi. *Gaplari qulog‘imizga kirmaydi* — izg‘irin etni uvada, ustixonlarni ilma-teshik

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qilgan. Malikaning qo‘lini kaftlarim orasiga olganman: muz, barmoqlari zirillaydi. Bu o‘rinda keltirilgan *Qulog‘iga kirmaslik* iborasini biz kundalik turmushda tinglamaslik, e‘tibor bermaslik ma‘nolarida ko‘p bora ishlatamiz. Iboralarning izohli lug‘atida esa bunday ta‘rif berilgan: 1. *parishon bo‘lish, kuchli hayajonlanish* yoki mashg‘ul bo‘lish tufayli o‘ziga qarata aytilayotgan gaplarni *anglamaslik, eshitmaslik*. Varianti: *quloqqa kirmaslik* nima. O‘xshashi: *qulog‘iga kirmoq*. 2. E‘tiborsiz qoldirmoq, qabul qilmaslik Varianti: *qulog‘(i)ga kiradimi?! quloqqa kirmaslik* nima Sovuqdanmi, charchoqdanmi, shu qadar *karaxt bo‘lib qolibmizki*, allaqanday mashina yonginamizga kelib to‘xtaganini ham payqamabmiz. Qordek oppoq «Volga». Bu yerda *karaxt bo‘lib qolmoq* iborasi qulog‘iga kirmaslik, hang-mang bo‘lib qolish ma‘nosida kelmoqda. Yozuvchining iboralarni qo‘llash uslubi uning yozuvchilik mahoratiga ijobiy yondashuvlar qo‘shganligining guvohi bo‘lamiz. Bir muddat odamshavanda bo‘lib ko‘ringan bu kimsa, mirg‘azabligi esiga tushib, yana asliga qaytadi. Yaqin bir soatdan buyon *boshini qotirayotgan* mana bu telbanamoning andishasizligiga achchig‘i keladi. O‘zidan pastroq bir mirg‘azabga buyuradiki, bu shakkokni anovi xonaga olib kirib boplab adabini bersalar, to ulug‘ning ulug‘vor qo‘shiqclariga hamnavoz bo‘lmagunicha darralasalar...

Boshini qotirmoq iborasiga biz o‘ylanmoq, javobini izlamoq ma‘nolarida qo‘llaymiz. Shavkat Rahmatullayev esa shunday ta‘rif bergan: *astoydil o‘ylanmoq, chuqur fikrlamoq*. Varianti: *bosh(i)ni og‘ritmoq*. [2:56] Ular orasida «Navoiy», «shoir» degan laqablar orttiradi. Ilk daf‘a bundan xabar topganida, ya‘ni — kimdir «Ho‘ Navoiy» deb chaqirganida u birdan ko‘karib ketadi, so‘ng shifoxonani *boshiga ko‘targudek to‘polon qiladi*. Shunda uni tutib olib yana emlaydilar...

Boshiga ko‘tarmoq iborasiga Shavkat Rahmatullayev *kurashga chog‘lanmoq* deya ta‘rif bergan. Bu ibora frazeologik omonim bo‘lib, bir necha ma‘nolarda ishlatiladi.

Uyga kelgach, Malikani ko‘rib yana bezovta bo‘ldim. Bu hodisani unga aytgim kelaverdi. Ammo... *tilim bormadi*. Kelib-kelib endi, rashkka o‘rin qolmagan bo‘lsa-da, (qabohat-ku bu!), aytoilmadim. Qo‘rqdim, nimadandir qo‘rqdim. Hanuz qo‘rqaman... Lekin, o‘sha tushdek qorbo‘ron kechasini hayotimizdan o‘chirib tashlab bo‘lmasligiga ham aqlim yetadi. Ushanda bizga unutilmas bir himmat ko‘rsatgan kimsani eslab esa *ko‘ngil taskin topgandek* bo‘ladi. *Ko‘ngli taskin topmoq* iborasini ham xotirjam bo‘lmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq kabi leksik birliklar bilan ifodalasak bo‘ladi. Mayli, yuzta joni bo‘lsa, bari-bari o‘shaning, ya‘ni — Malikaning yo‘lida nisor! Shu qiliqlarini *yuziga solsangiz*, «Sen uchun-da, jo‘ra! Birga o‘qiymiz-ku,

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jo‘ra!» deydi yerga qarab. Mehribon jo‘ra, shum raqib! Bu yerda *yuziga solmoq* iborasi uyaltirmoq,yuziga aytmoq,eslatmoq ma’nosida kelgan.

Adibning ushbu hikoyasidagi har bir leksema o‘z o‘rnida qo‘llangan. Frazemalar hikoyaning nutqimizdagi ahamiyati va amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatib bergan. Iboralar o‘zbek tilining ichki leksik qatlami haqida, undan foydalanib ham ilmiy ham nazariy bilimlar olishimiz uchun turtki bo‘lishiga xizmat qilgan. Oddiy so‘zlar bilan emas, iboralar bilan yozilgan ushbu epik asar har bir kitobxon uchun qiziqarli va o‘qimishlidir. Erkin A‘zamning hikoyanavislik mahorati va uning badiiy ijoddagi o‘rnini o‘zbek tilining so‘zlar boyligini ko‘rsatish uchun qo‘llagan har bir leksemasidan bilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Shavkat “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”. “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent- 1978.
2. Ziyouz.com kutubxonasi. Erkin A‘zam . “ Navoiyni o‘qigan bolalar “ hikoyasi.
3. Rahmatullayev Shavkat .2006.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.(darslik).Toshkent “Universitet”
4. Internet sayt.www.ziyouz.com .